

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.M.Normatov	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida	229
Sh.T.Tursunkulova	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari	235
I.M.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	239
Sh.D.Ismoilov	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari	247
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari	251
M.Kamalitdinov, T.Mavlanov	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish	257
A.I.Saminov	
Oksyumoronning semantik xususiyatlari	261
I.X.Mavlonov	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari	266
B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari	272
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	276
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	280
G'Z.Abduraxmonov	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	284
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	288
Sh.Ismoilov	
Nogironlik tushunchasining modellari	293
D.O.G'afurov	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni	300
D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish	303
D.S.Ergasheva	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash	308
G.M.Ravshanova	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lim va ta'lim axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish	313
O.O'.Xolmatova	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari	320
F.A.Tashpulatov	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari	324
S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini	329
F.N.Usmonov	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari	334
E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova	
Suvdagi og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri	340
S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev	
<i>Allium karataviense</i> o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili	349

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MULOQOT QILISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

FORMATION OF COMMUNICATION SKILLS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich¹, Maxkamov Mashhurjon Rashidzoda²

¹Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

– Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Maxkamov Mashhurjon Rashidzoda

– Farg'ona davlat universiteti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Аннотация

Maqola bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muloqotdan foydalanishning ahamiyati, boshqa psixologik xususiyatlari va irodaviy sifatlarining tarkib topish muammolari va ularning muloqot shakllanishiga ko'rsatuvchi ta'sirlar muhokama etilgan. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya orqali ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari haqida so'z yuritilgan

Аннотация

Статья является одной из актуальных на сегодняшний день тем и направлена на формирование коммуникативных навыков учащихся начальной школы. Обсуждается значение использования общения в развитии самостоятельного и творческого мышления младших школьников, проблемы нахождения содержания других психологических особенностей и волевых качеств, их влияние на формирование общения. Также обсуждались вопросы воспитания духовно зрелого поколения через образование на основе личностно-ориентированного, компетентностного подхода.

Abstract

The article is one of today's current topics and is aimed at forming the communication skills of elementary school students. The importance of the use of communication in the development of independent and creative thinking of elementary school students, the problems of finding content of other psychological characteristics and volitional qualities, and their effects on the formation of communication are discussed. Also, issues of raising a spiritually mature generation through education based on a person-oriented, competency-based approach were discussed.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, muloqot, muloqot shakllanishi, nutqni rivojlantirish.

Ключевые слова: ученик, учитель, начальное образование, общение, формирование общения, развитие речи.

Key words: student, teacher, primary education, communication, communication formation, speech development.

KIRISH

Jahonda nutq madaniyatini shakllantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar asosida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari, til ta'limini kasbga yo'naltirishni tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1]. Respublikamiz ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofda voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratildi. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim vazifalar sifatida "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini

rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabilar belgilab berilgan [1]. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish mushkul. Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Barkamol avlodni tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish masalalari Sharqning buyuk mutaffakirlarini asrlar davomida qiziqtirib kelgan. Til va nutq, nutq madaniyati, samarali muloqot, muloqot san'ati, notiqlik mahorati kabi masalalar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Kaykovus, Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Husayn Koshifiy, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi ko'plab mutafakkirlarning qiziqish doirasiga kirgan [3].

Keyingi yillarda dunyo olimlari tomonidan fanning turli sohalarida muloqot fenomenining tadqiqi amalga oshirildi: muloqotning falsafiy asoslari L.Buyeva, M.Kagan, R.Krauss, T.Rodermel, V.Fefelovalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan [3]. Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining bilingvizm, faol nutq, fonetik-fonematik, nutqning to'liq rivojlanmaganligi va yozma nutq kamchiliklari; jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy muammolarining ayrim jihatlari N.Abidova, N.Musaeva, D.Nazarova, D.Nurkeldieva, V.Raxmonova, R.Rustamova, N.Sosedova, U.Fayziyeva, M.Xamidova, R.Shomaxmudova, F.Qodirovalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan [3]. Jahonda bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy metodologik jihatlari Anne O'Hare, Chargit E.Clarka, Edward G.Conturea, Tedra A.Walden, Warren E.Lambert, Sloane Burgess, Lisa Audet, Sanna HarjusolaWebblar tomonidan tadqiq qilingan [4].

MUHOKAMA

Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda va ularni kichik yoshdanoq bartaraf qilishga harakat qilinmoqda. Psixolog olim V.N.Myasishev muloqot masalasiga chuqur yondashgan, uni o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, V.N.Myasishev muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatarni namoyon qilishi mumkin». Tajribali psixolog A.A.Bodalyev esa shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohalarida o'zining o'rnini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida bu masalaga katta e'tibor berib, bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A.A.Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur» [2].

Forobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi [7].

Bolalar maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo'lgan bo'lsa, endi maktab o'qituvchisi, sinf rahbari bilan muloqotda bo'ladi. Bolalarda bu davrda mas'uliyat hissi shakllanadi. Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol

o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishiga o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga-o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi [2].

Bolalar yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatish usullaridan biri muloqot ko'nikmasini mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha sharoitida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga o'rgatadi. Avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib topadi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar orqali muloqotga o'rgatiladi. Shaxning o'zi bu usullarga ijobiy munosabatlar bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki shaxs muloqotda bo'lmasdan faoliyat subyekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmay. A.A.Bodalyev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosida muloqotga o'rgatish masalasi turadi. Mehnat ta'limi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. Ya'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi [2].

Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi, nostandart usullarni izlab topishi kerak.

Har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, darsda o'quvchilarning ijodiy fikrlashga o'rgatib borish muhim o'rin tutadi. Erkin va ijodiy fikrlash kishining muloqotga kirishishida, o'z fikrini erkin bayon qilishida, o'zganing fikrini to'ldirib, qo'shimchalar qila olishida, voqelikni idrok etib o'z qarashlarini ifoda eta olishida namoyon bo'ladi. Lekin ko'pchilik o'quvchilar o'zlari o'qigan, ko'rgan, eshitgan voqealarini o'zgalarga gapirib berish tugul, bu voqealarga ijodiy, erkin va mustaqil fikr bildiradi olmaydilar. O'quvchilarda ijodiy mustaqil fikrlashni shakllantirishda darslarda ko'proq suhbat, muloqot qilish, "Voqeaga sizning fikringiz qanday?", "Siz shunday vaziyatda qanday yo'l tutar edingiz?", "Siz qahramonning tutgan ishini qanday baholaysiz?", "Bu paytda nima bo'lgan bo'lishi mumkin?", "Nega qahramon shunday yo'l tutdi deb o'ylaysiz?" kabi shunga o'xshash savollar bilan o'quvchilarni baxs-munozaraga jalb etish juda muhim[5].

Masalan, har bitta darsda navbatchi axborot topshirishi shu kundagi voqea-hodisalar, vaziyat haqida to'liq ma'lumot berish bilan belgilanadi. O'qituvchi topshiriqlarni bolalarga ularni guruhlariga yoki juftliklarga ajratib bersa, o'quvchi bunday holatda o'zining fikrini guruhdagi boshqa tengdoshlariga yoki o'z sherigiga aytishi ham muloqot orqali namoyon bo'ladi. Guruhlarda ishash uchun topshiriqlar berilganida o'quvchilar o'z fikrlarini o'rtoqlariga yetkazishga harakat qiladilar. Hamkorlikda ishlash jarayonida bir-birlarining fikrlarini eshitadilar va to'ldiradilar, eng maqbulini ajratishga erishadilar. Fikrni bayon qilish natijasida nutq malakalari shakllanadi, ko'pchilik oldida fikr bildirishga, o'z munosabatlarini bildirishga o'rganadilar. Voqeani turli usullarda erkin va mustaqil bayon qilish imkoni tug'iladi. So'z boyliklari sayqallashadi. Bu ham bolalar nutqini o'stirishga yordam beruvchi eng katta omillardan biri [5].

Agar o'qish darsi bo'lsa, darslikda berilgan matnlarni rollarga bo'lish orqali o'quvchilarning voqea-hodisalarni izchil gapirib berish, tengdoshlarining fikrlarini to'liq eshitish, muloqotda qiladigan kamchiliklarini bartaraf etish kabi muhim ko'nikmalari shakllaniriladi.

Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida

bolalarda lugʻat boyligini oshirish va ularni oʻqigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq oʻrgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va soʻzlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun eʼtiborini yozish texnikasiga va oʻtirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning ogʻzaki nutqi orqali belgilanadi, yaʼni u soʻzni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish boʻyicha muntazam mashqlar oʻtkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli oʻzlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi. Shu bois bolalarning yozma nutqlari ularning ogʻzaki nutqiga qaraganda ancha boʻsh boʻladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi taʼsirida oʻsadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab ogʻzaki va nutqni oʻstirish bilan birga nutq madaniyatini ham oʻrgatib borishlari zarur [2]. Ye.I.Tixeyeva nutqni rivojlantirish mashgʻulotlariga nisbatan qoʻyadigan asosiy talablari qatorida bolalar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli oʻtkazish, harakatlanish va sinab koʻrish imkoniyatlari bilan aloqasini olgʻa suradi. Oʻz davrining ilmiy yutuqlari doirasida Ye.I.Tixeyeva quyidagilarni ishlab chiqqan:• bolalarni maktabda taʼlim olishga tayyorlovchi uyushtirilgan dasturiy mashgʻulotlarni oʻtkazish metodikasi;

•maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, fikrlashini rivojlantirish; original didaktik material tizimi va undan maktabgacha taʼlim muassasasida foydalanish metodikasi [6].

XULOSA

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni soʻzli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va oʻzlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Muloqot bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yoʻl ochadi. Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil boʻlsa, u shunchalik tashabbuskor boʻladi. Odamning fikrlashi qancha erkin boʻlsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor boʻladi. Shakllanib kelayotgan yosh avlodning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, bolada oʻz xatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo boʻladi. U oʻz fikri, qarashiga ega boʻladi. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha hamda maktab yoshga toʻgʻri keladi. Boshlangʻich taʼlim bolaning sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishini taʼminlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam taʼlim olishga tayyorlaydi. Maktab yoshidagi bola eshitadigan, maʼnosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qoʻllaydigan soʻzlarni asta-sekin tevarakatrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, oʻzining uncha koʻp boʻlmagan soʻz zaxirasiga tayanib bilib oladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Masharipova U. Innovatsion taʼlim sharoitida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. ped. fanl. boʻyicha falsafa doktori (PhD). ...diss. avtoref. – T.: 2018
2. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Turon Iqbol, 2016. – 3-bet
3. Nurmanov A. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga oʻrgatishning pedagogic imkoniyatlari. ped. fanl. boʻyicha falsafa doktori (PhD). ...diss. avtoref. – T.: 2017
4. Toxtiyarova Sh. Bolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etishning korreksion-logopedik jarayonini modellashirish. ped. fanl. boʻyicha falsafa doktori (PhD). ...diss. avtoref. – T.: 2020
5. Djumayeva A. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini ijodiy muloqot qilishga oʻrgatish usullari//”Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal, 2020, (3) III. – 330-333-betlar
6. Babayeva. D.R. Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 19-bet
7. Joʻrayeva M. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar nutqini oʻstirish yoʻllari//”SCIENCE AND EDUCATION” Scientific Journal, February 2020, volume 3 issue 2.-766-bet